

TAXMIN MA'NOSINI IFODALOVCHI GRAMMATIK KONSTRUKTSIYALARNING O 'ZARO FARQLANISHI

Sevinch Mirjamilovna Mirjamilova

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining magistri,

Uzbekistan E-mail: mirjamilova.sevinch1403@gmail.com

Kalit so'zlar: Koreys tili, grammatik konstruktsiyalar, taxmin ifodasi, (으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다, -(으)ㄴ가/나 보다, -(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다, subyektiv taxmin, obyektiv taxmin, , til o'rgatish, koreys tili darsliklari, ma'no nozikligi, ishonch darajasi, dalillarga asoslangan taxmin, lingvistika, talaba bilimlari, til o'qitish metodikasi, Koreys universitetlari, taxmin ma'nosi, til ta'limi, darslik tahlili.

Annotatsiya: Ushbu maqola koreys tilida taxmin ifodalovchi uchta asosiy grammatik konstruktsiya – ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다’, ‘-(으)ㄴ가/나 보다’ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다’ ning qo'llanilishiga bag'ishlangan. Har bir grammatik ifoda so'zlovchining subyektiv yoki obyektiv ishonch darajasiga, shuningdek, ma'lumotning dalillarga asoslanganligiga qarab farqlanadi. Ushbu grammatik konstruktsiyalar O'zbekistondagi koreys tili darsliklarida qanday tushuntirilgani va talabalarning bu ifodalarni tushunish darajasi o'rganilgan. Seul Milliy Universiteti, Yonsei Universiteti va Kyung Hee Universitetining koreys tili darsliklari misolida ushbu ifodalarning ma'no nozikliklari tahlil qilinib, ularning taqdimot uslublari taqqoslangan. Maqola natijasida talabalarning ushbu grammatik ifodalarni o'zlashtirishini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Qanday qilib, grammatik konstruktsiyalarning farqlarini tushunish va ularni to'g'ri qo'llash O'zbekistondagi talabalarning koreys tilini chuqurroq o'zlashtirishiga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan.

Koreys tilida taxmini ifodalashda ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다’, ‘-(으)ㄴ가/나 보다’ hamda ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다’ eng ko'p qo'llaniladigan grammatik konstruktsiyalar hisoblanadi. Uchala grammatik konstruktsiya ham taxmini ifodalasada, qo'llanilish jihatidan bir-biridan farq qiladi. So'zlovchining ishonch darajasi va dalil-u isbotlarga asoslanganligiga qarab farqlarni aniqlash mumkin.

Masalan, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다’ Grammatik konstruktsiyasini tahlil qiladigan bo'sak, ushbu grammatik konstruktsiyada so'zlovchi o'z shaxsiy tajribasi yoki eslab qolgan xotirasi asosida taxmin qiladi va bunda ishonch darajasi past bo'ladi.

‘-(으)ㄴ가/ 나 보다 ‘ hamda ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다 grammatik konstruktsiyasida esa ‘보다 ‘ (ko ‘rinadi) va ‘모양 ‘ (shakl) so‘zlarining leksik ma‘nolariga asoslangan bo‘lib, ma‘lumotga dalil- asoslar asosida taxmin qilinadi, shu sababli ishonch darajasi ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다 ‘ dan kuchliroq sanaladi¹.

Quyidagi misollar bu farqlarni yoritishga yordam beradi:

(1) a. 철수가 주방에서 밥을 먹는 것 같아요. (Cholsu oshxonada ovqatlanayotgan bo‘lsa kerak).

b. 철수가 주방에서 밥을 먹나 봐요. (Cholsu oshxonada ovqatlanayotgan ko‘rinadi).

d. 철수가 주방에서 밥을 먹는 모양이에요. (Cholsu oshxonada ovqatlanayotganga o‘xshaydi.)

(1 a,b,d) gapda hozirgi zamon shaklidan foydalanilgan. Gapning qo‘llanilishini taqqoslab ko‘rsak, uchta jumlaning aytilish holatlari har xil ekanligini ko‘rish mumkin. (1a) da, oshxonadan eshitilgan ovozga ko‘ra aytilgan bo‘lsa, (2b,d) da, Cholsu zalda sevimli filmini ko‘rmayotganini ko‘rganimizda, Cholsuning oshxonada ovqatlanayotganini sezib, ushbu holatga asoslanib aytilganligini beradi.

(2)a. 철수가 주방에서 밥을 먹은 것 같아요.(Cholsu oshxonada ovqatlangan bo‘lsa kerak).

b. 철수가 주방에서 밥을 먹었나 봐요. (Cholsu oshxonada ovqatlangan ko‘rinadi).

d. 철수가 주방에서 밥을 먹은 모양이에요. (Cholsu oshxonada ovqatlanganga o‘xshaydi).

(2 a,b,d) gapda o‘tgan zamon shaklidan foydalanilgan. Har uchala jumlada Cholsuning ovqatlangani taxmin qilinadi. (2-a) so‘zlovchining oddiy hissiyotlarini ifoda etmoqda. (2b) holatida, hozirda ovqat stoli tartibsiz ekanligini ko‘rganimizdan so‘ng, Cholsu ovqatlanganini stolning holatini ko‘rgach, sezib gapiryapmiz. (2d) holatida esa, Cholsuning ovqatlanganidan keyingi holatini ko‘rganimiz yoki his qilganimizdan so‘ng gapiryapmiz.

(3)a.철수가 주방에서 밥을 먹을 것 같아요.(Cholsu oshxonada ovqatlansa kerak).

b.철수가 주방에서 밥을 먹을 건가 봐요. (Cholsu oshxonada ovlanadigan ko‘rinadi).

d. 철수가 주방에서 밥을 먹을 모양이에요. (Cholsu oshxonada ovqatlanadiganga o‘xshaydi).

¹ 판단의 근거가 되는 정보를 3종류로 나누어 있는데 신문, 방송, 화자나 타인의 이야기 등 물리적 매개체를 통해 외부세계로부터 얻은 간접적 정보와 시각, 청각, 촉각 등 화자 스스로의 고유한 인지기능을 통해서 외부세계로부터 얻은 직접적 정보, 그리고 화자 자신의 기억, 감정, 직감 등 본래 화자 자신의 인식 세계에 내재하는 내재적 정보다. (김동욱, “한국어 추측 표현의 의미 차이에 관한 연구-‘ㄴ 것 같다’, ‘ㄴ 듯하다’와 ‘ㄴ가 보다’, ‘ㄴ 모양이다’의 의미차이를 중심으로-,” 국어학 35집 (2000: 184-185))

(3a,b,d) gapda kelasi zamon shaklida foydalanilgan. So ‘zlovchi hali sodir bo ‘Imagan hodisalar haqida taxmin qilgan. (3a,b,d) gapda hali sodir bo ‘Imagan voqea berilgani uchun ma ‘no farqlarini sezish qiyin. Hali sodir bo ‘Imagan voqealar haqida taxmin qilganda, ovqat vaqtiga qarab Cholsu ovqatlanayotgan bo ‘lishi mumkin yoki uchinchi shaxsdan eshitgan bo ‘lishi mumkin yoki och qolgan Cholsuni ko ‘rib shunday taxmin qilish mumkin. (3a) umumiy taxmin tushunchasi keltirilgan, (3b) hozir Cholsu ovqat tayyorlayotganini ko ‘rishi mumkin degan ma ‘noni anglatadi va (3d) Cholsu ovqat tayyorlayotganini ko ‘rgandan keyingi aytilganligini bildiradi. ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ obyektidagi holatni sezayotgan holatni bildirs, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ esa uni sezgandan keyin ishlatiladigan ifoda deb aytish mumkin.

Taxmini ifodalovchi uchta ifoda o ‘rtasida ma ‘no nozikligi mavjud². Ushbu ma ‘no farqlari har bir iboraning ichida yashiringan leksik ma ‘no tufayli yuzaga keladi. Yuqoridagi munozaralarga qaraganda, ushbu uchta taxmin ifodasi quyidagi ma ‘no farqlariga ega:³

1. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ umumiy taxmin ifodasidir.
2. ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ hozirgi holatni sezayotganlikni nazarda tutadi.
3. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ holatni sezgandan keyin ushbu holatga asoslanib gapiradi.

Umuman olganda, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘, ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ subyektiv va obyektiv xususiyatlari bilan qarama-qarshi cheklovlarni ko ‘rsatadi. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ keng qo ‘llaniladigan ifodadir⁴. So ‘zlashish jarayonida bevosita ma ‘lumotlardan foydalanganda ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ga nisbatan ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ tabiiy ravishda ishlatiladi. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ning boshqa taxmin ifodalaridan farqi shundaki, bu ifoda subyektiv taxmin sifatida ishlatilishi mumkin. ‘-(으)ㄴ가/나 보다

² 의미의 차이는 ‘같다, 모양, 보다와 같은 단어들의 본래의 의미에서 비롯된다. ‘-는 것 같다: 어떤 사물의 동작이나 상태가 다른 사물의 동작이나 상태와 같아서 그를 미루어 짐작한다. ‘-는 모양이다: 어떤 사물의 모양으로써 동작이나 상태를 미루어 짐작한다. ‘-나 보다: 어떤 사물을 보고 동작이나 상태를 짐작한다. (백봉자, “외국어로서의 한국어 문법사전,” 서울: 연세대학교 출판부, 2012:322)

³ 진기호, “어휘 의미를 활용한 유의적 문형 교수 방안, ‘-는 것 같다, -나 보다, ‘는 모양이다’를 중심으로-,” 한국어 교육 (2006):396- 411

⁴ ‘주관적’이란 화자가 사태의 경험자가 됨으로서 사태의 내부에서 상태를 바라보는 것이며, ‘객관적’은 화자가 관찰자로서 사태를 외부의 관점에서 바라보는 것을 말한다. (이기중, “국어의 짐작과 추측 구문 연구,” 박사학위논문, 한남대학교, (1992:104 - 105)

‘ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ esa obyektiv asosga ko ‘ra holatni baholaydi va so ‘zlovchi gapirish jarayonidagi bevosita ma ‘lumotlarni asos qilib olib, taxminni ifodalaydi hamda tashqi dunyodan olingan bilvosita ma ‘lumotlarga tayanadi⁵. Quyidagi <jadval 1> asosida uchta grammatik konstruktsiyaning ma ‘nolari, farqlari tartibga keltirildi.

Jadval 1: Taxmin ifodalari orasidagi tahlil

	Subyektiv (-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다)	Obyektiv (-(으)ㄴ가/ 나 보다)	Obyektiv (-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다)
Asos	To ‘g ‘ridan-to ‘g ‘ri yoki bilvosita ma ‘lumotlarga asoslangan subyektiv taxmin	Hozirgi vaziyatni idrok qilishga asoslangan obyektiv taxmin	Vaziyatni idrok qilgandan keyin unga asoslangan obyektiv taxmin
Qo ‘llanish	Keng qo ‘llaniladi, tabiiyroq	Vaziyatni hozirgi vaqtda idrok qilganida qo ‘llaniladi	Vaziyatni idrok qilgandan keyin qo ‘llaniladi

Undan tashqari, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida koreys tili darsliklarida, xususan O ‘zbekistondagi universitetlarda foydalanilayotgan koreys tili darsliklarida keltirilgan ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다 ‘, ‘-(으)ㄴ가/ 나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다 ‘ kabi uchta taxminni ifodalovchi grammatik konstruktsiyalar qanday tushuntirilgani va taqdim etilganligi ko ‘rib chiqildi. Bu orqali hozirgi kunda O ‘zbekistonda ushbu uchta taxminni ifodalovchi grammatik konstruktsiyalarni talabalar qanday darajada tushunib, uni amaliyotda qo ‘llashi o ‘rganildi.

Quyida 3 ta Seul milliy universiteti koreys tili darsliklari, Yonse universiteti koreys tili darsliklari hamda Kyung Hee universitetining koreys tili darsliklarida keltirilgan ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 것 같다 ‘, ‘-(으)ㄴ가/ 나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄹ 모양이다 ‘ kabi taxminni ifodalovchi grammatik konstruktsiyalarning qo ‘llanilishi, ma ‘no nozikligi, farqlanishi ko ‘rib chiqildi.

Seul milliy universiteti koreys tili darsliklarida 1-dan 4-gacha bo ‘lgan kitoblarida jami 9 xil taxminni ifodalovchi grammatik konstruktsiyalari taqdim etilgan. Seul Milliy Universiteti koreys tili darsliklarida har bir taxmin ifodalarining turli

⁵ 간접적 정보에 의해 판단을 내리는 경우 ‘-(으)ㄴ가/ 나 보다’, ‘-는/ (으)ㄴ/ (으)ㄹ 모양이다’는 최종적인 판단의 주체가 화자 자신인 것을 명확히 나타내고 있지 않고 오히려 최종적인 판단을 내린 사람은 화자 이외의 다른 사람이고, 화자는 단지 그 타인의 판단에 동조하는 정도의 제삼자적인 입장을 취하는 객체 추측의 의미를 나타내고 있다. (김동욱, “한국어 추측 표현의 의미 차이에 관한 연구- ‘ㄴ 것 같다’, ‘ㄴ 듯하다’와 ‘ㄴ가 보다’, ‘ㄴ 모양이다’의 의미차이를 중심으로-,” 국어학회 (2000): 186)

shakllari taqdim etilib, taxmin ma ‘nisini ifodalovchi grammatik konstruktsiyalarining taqdimotlari ham ko ‘p miqdorda uchraydi. 9 xil⁶ taxmin ifodalari orasida uchta taxmin ma ‘nosini ifodalovchi grammatik konstruktsiyalar tanlab olindi. Qo ‘llanilishi bo ‘yicha ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 것 같다 ‘ eng ko ‘p ishlatilgan bo ‘lib, 1-o ‘rinni egallaydi. ‘-(으)ㄴ가/ 나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 모양이다 ‘ esa mos ravishda 5-o ‘rin va 7-o ‘rinni egalladi.

Seul Milliy Universiteti koreys tili darsliklarida ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 것 같다 ‘, ‘-(으)ㄴ가/ 나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 모양이다 ‘ ning tahlilini quyida jadval asosida tahlil qilindi.

Tartibi	Ifodasi	Grammatik tushuntirish va misol jumlar	Taqdim etilgan birliklar va mavzular
1	Ot-인 것 같다	<ul style="list-style-type: none"> Menimcha bu odam koreys. Menimcha, u Youngsuning onasi. Bu juda chiroyli soatga o ‘xshaydi. Sizingcha, bu odam Cheolsuning do ‘stimi? 	2-jild, 4-dars <Koreys tilini qanday o ‘qishni bilasizmi?>
2	Sifat -(으)ㄴ 것 같다 Fe ‘1- 는 것 같다	<ul style="list-style-type: none"> Menimcha, Youngsookning soati juda qimmat. Menimcha, Kim domla band. Bu kitob juda qiziqarli ko ‘rinadi. Hozir tashqarida yomg ‘ir yog ‘ayotganga o ‘xshaydi. Menimcha, hozirgi bolalar kitob o ‘qimaydi. 	2-jild, 6-dars <Menimcha, bu kitob juda qiyin>
	Sifat/Fe ‘1- (으)ㄴ 것 같다	<ul style="list-style-type: none"> O ‘ylyamanki, kelasi hafta band bo ‘laman, chunki qiladigan ishlarim ko ‘p. Ertaga ob-havo yaxshi bo ‘ladi deb o ‘ylyaman. O ‘ylyamanki, bulgogi mazali bo ‘ladi. Menimcha, Youngsook uyga qaytmaydi. Menimcha, u ham qo ‘ng ‘iroq qiladi. 	
3	Fe ‘1- 나 보다 Sifat- (으)ㄴ가 보다 Ot-인가 보다	<ul style="list-style-type: none"> Opangiz nima qiladi? - Hozir cho ‘milish kerak shekilli. Menimcha, onam ovqat pishiradi. Bu mazali hidga ega. Menimcha, Minseok Pusanga ketgan. Men uyda emasman. Menimcha, film endi tugadi. Odamlar chiqib ketishyapti. Menimcha, janob Park bu hafta band. U keyingi hafta men bilan uchrashishini aytdi. 	3-jild, 7-dars <Seulda uy sotib olish osmondagi yulduzni tanlashga o ‘xshaydi>

⁶ 서울대학교 한국어 교재에서는 9가지 추측 표현이 ‘-(으)ㄴ 것이다’가 32.89%, ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 것 같다’는 27.63%, ‘-겠다’는 17.37%, ‘-(으)ㄴ 터이다’는 6.05%, ‘(으)ㄴ가/ 나 보다’는 5.00%, ‘-(으)ㄴ 겠(으)’는 3.68%, ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 모양이다’는 3.42%, ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 지 모르다’는 2.11%, ‘-(으)ㄴ/ 는/ (으)ㄴ 듯하다’는 1.85%로 나타났다. (이선영, “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:57)

		<ul style="list-style-type: none"> ○ Janob Li Xongning ona shahri go ‘zal va ob-havo hamisha yoqimli. Men qachondir u erga borishni xohlayman. ○ O ‘y laymanki, tinglash testi oson bo ‘ldi. 100 ball olgan o ‘quvchilar ko ‘p. ○ Menimcha, dam olish vaqti keldi. Bu yerda talabalar bor. ○ Menimcha, bu Youngmining yangi mashinasi. 	
4	Sifat/Fe ‘l- (으)ㄴ/는 / (으)ㄹ 모양이 다	<ul style="list-style-type: none"> ○ Junseok juda kasalga o ‘xshaydi. ○ U maktabga kelmadi, tashqarida havo issiq. ○ Buvim xlyotganga o ‘xshaydi. jim bo ‘l. ○ Yomg ‘ir yog ‘adiganga o ‘xshaydi. Osmon birdan qorong ‘i bo ‘lib qoladi. ○ Roman sotilganga o ‘xshaydi. 	3-jild, 9-dars <Siz uni istalغان vaqtda omonatga qo ‘yishingiz va olishingiz mumkin, to ‘g ‘rimi?>

Seul milliy universiteti koreys tili darsliklarida har bir matnda suhbat shaklida taxmin ifodalari keltirilgan. 3-jild 7-darsning suhbat matnida ‘모두 늦은 것 같은데 어떡하죠?’ ifodasi keltirilgan va grammatik tushuntirishda ‘-Sifat/Fe ‘l (으)ㄴ/는 데 어떡하죠?’ izohlangan. 2-jildda o ‘rganilgan ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ grammatik elementini qayta tushuntirish, o ‘quvchilarga uni yaxshi tushunishlari va yangi grammatik elementlarni osonroq o ‘zlashtirishlariga yordam beradi. 3-jild 7 va 9-darslarida grammatik tushuntirishni keltirishdan oldin suhbat matnida ‘토요일이라서 길이 굉장히 막히나 봐요. ‘ va ‘외국인이라서 잘 모르시는 모양이군요. ‘ kabi ifodalar keltirilgan va ‘-군요 ‘ hayratlanish ifodasi grammatik elementlarga tabiiy ravishda kirish imkonini beradi.

Seul milliy universiteti koreys tili darsliklarining 1-2-jildlarida koreys tili grammatik elementlari oddiygina ingliz tilida tushuntirilgan va batafsil izohlar berilmagan. 3-4-jildlarda esa ifodalar va misollar keltirilgan, lekin hech qanday izohlar yo ‘q, bu esa o ‘quvchilarga misollardan taxmin ifodalarining ma ‘nosini yaxshi tushunishni qiyinlashtiradi. Batafsil izohlar berilmagani uchun, o ‘quvchi kitobni o ‘zi o ‘rganayotganida grammatik elementlarni yaxshi tushunishi oson bo ‘lmaydi. Shuningdek, ingliz tilini yaxshi bilmaydigan talabalar uchun bu yanada qiyin bo ‘ladi. Masalan, taxmin ifodasi ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ning inglizcha tushuntirishi ‘To seem to be A/V ‘, ‘-(으)ㄴ 가/나 보다 ‘ning inglizcha tushuntirishi ‘Seems to be A/V ‘, va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ning inglizcha tushuntirishi ‘It seems that ‘ deb izohlangan. Bu yerda ‘seem ‘ so ‘zi uchta taxmin ifodalarida ham bir xil ko ‘rsatilgani uchun, o ‘quvchilar uchun chalkashlik tug ‘dirishi mumkin. Shu sababli, o ‘qituvchi ushbu ma ‘no farqlarini aniq tushunmay, xatoliklarga yo ‘l qo ‘yadilar.

2-kitob 4-bobda mashg ‘ulot amaliyoti ‘ Ot-인 것 같은데- ‘ ifodasini biriktirib, 2-kitob 6-bobda rasmni ko ‘rib topshiriq bajarish ifodalari berilgan. 3-kitob 7-bobda ‘- Ot인가 보다 ‘ grammatik konstruksiyaning tavsifi berilishidan oldin ham mashg ‘ulot amaliyoti taqdim etilmagan. Misollar ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ning 2 ta ma ‘nasi berilgan, lekin boshqa izohlar mavjud emas, shuning uchun o ‘qituvchining har bir mashg ‘ulot topshirishini taqdim etishi kerak. Xususan, 3-kitob 7-bobda ‘이게 무슨 소리지요? 밖에 비가 오나 봐요 ‘ misolida ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다 ‘ bilan taqqoslab, tushuntirilib ketilmasa talabalar xató qilishi tabiiy.

Seul milliy universiteti koreys tili darsliklarining grammatik izohlari boshqa darsliklarga qaraganda juda qisqa. Har bir taxmin ifodasi uchun talabaga oddiy tushuntirish berilib, ma ‘no farqlari va qo ‘shimcha misollar keltirsa, bu talabalarning samarali o ‘qishlariga yordam berishi mumkin.

Yonsei universiteti koreys tili darsliklari 1-5 jild orasida umumiy 12 ta taxminiy ifodalar taqdim etilgan. Uchta taxminiy ifodaning ko ‘rsatkichlarini ko ‘rib chiqsak, "-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다" ko ‘rsatkichi eng ko ‘p ishlatilgan deb topilgan, "-(으)ㄴ가/나 보다" va "-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다" esa 4-va 6-o ‘rinda joylashgan⁷.

Tartibi	Ifodasi	Grammatik tushuntirish va misol jumlar	Taqdim etilgan birliklar va mavzular
1	Fe ‘-(으)ㄴ 것 같다	<ul style="list-style-type: none"> • Bu qo ‘shma fe ‘l ustiga biror birning ehtimol kelajak haqida o ‘ylarini anglatadi. So ‘z o ‘tkazmasi oxirida qo ‘shiladi, va kelajakda ehtimolroq yoki muammo yoki voqea haqida o ‘ylarini bildiradi. • Agar fe ‘llar yashirin yoki to ‘g ‘ri bo ‘lsa, -ㄴ 것 같다 so ‘zini o ‘z ichiga oladi, agar fe ‘llar undan qo ‘shilsa, -을 것 같다 so ‘zini o ‘z ichiga oladi. ○Ertaga yomg ‘ir yog ‘adi deb o ‘y layman. ○Narxlar qaytadan oshishi kutilmoqda. ○Bugun yaxshi voqea bo ‘lishini his qilaman. 	1-jild, 7-dars <Ob-havo yaxshi>

⁷ 연세대학교 한국어 교재의 총 12가지 추측 표현 비율은 ‘-겠다’가 29.10%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다’는 28.56%, ‘-(으)ㄴ 것이다’는 14.09%, ‘(으)ㄴ가/나 보다’는 11.05%, ‘-(으)ㄴ 것이다’는 9.22%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다’는 4.35%, ‘-(으)ㄴ 걸(요)’는 1.6%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 듯하다’는 0.63%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 듯싶다’는 0.40%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 지 모르다’와 ‘-(으)리라’는 0.34%, ‘(으)ㄴ까 하다’는 0.29%로 나타났다. 모두 1,746개의 문장이 추측의 뜻을 가지고 사용되었다. (이선영, “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:60)

		<p>○Shanbad kunlari, kinoteatrga ko ‘p odamlar kelishi mumkin emasmi?</p>	
2	<p>Fe ‘1-는 것 같다 Sifat-(으)ㄴ 것 같다</p>	<p>• Joriy davom etayotgan harakatlar yoki ma ‘mul harakatlar uchun, allaqachon yakunlangan harakatlar yoki holatlar uchun - (으)ㄴ 것 같다 qo ‘shing. Yakunlangan voqea yoki holatlar uchun (ta ‘rifi bilan yozilgan bo ‘lishi lozim), ‘-는 것 같다 ‘ so ‘zini ishlatish.</p> <p>○Havo chidayotganini his qilaman. ○Ular bir-birini sevishayotganlar. ○U bir xavfli ekanini his qiladi. ○Kecha kechqurun qo ‘yog ‘i chidayotganini his qilaman. ○Bugun do ‘konni yopganini his qilaman. ○Bugun hissiyotim yaxshi bo ‘lganini his qilaman. ○Taksi etarliroq ekanini his qilaman.</p>	
3	<p>Fe ‘1-는 모양이다/ -Sifat-(으)ㄴ 모양이다</p>	<p>• Bu, fe ‘llar ustida asoslanadi va "ko ‘rinib turmoq", "shunday ko ‘rinmoq", "ko ‘rib turmoq" fikrini bermog uchun ishlatiladi. Hozirgi harakatlarga tegishli bo ‘lsa, -는 모양이다dan foydalaniladi. Yakunlangan harakat yoki holatlar uchun (으)ㄴ 모양이다dan foydalaniladi. Kelasi harakat yoki holatlar uchun -(으)ㄴ 모양이다.dan foydalaniladi.</p> <p>○Uyda hech kim bo ‘lmagan ko ‘rinmoqda. ○O ‘quvchilar imtihonlarni yaxshi topgan ko ‘rinmoqda, ha? ○Kiyim kiyuvchilar chiqish uchun tayyorlanish ko ‘rinmoqda. ○Xotin juda kasallikdan ko ‘rinmoqda. ○Ayrilish uchun qayg ‘uli ko ‘rinmoqda.</p>	<p>2-jild, 15-dars <Buyumlarni sotib olish></p>
4	<p>-는가 보다/ (으)ㄴ가 보다</p>	<p>• Bu, oxirgi savol qo ‘shishning -는가 va yordamchi fe ‘llar bo ‘lib, bunda ‘ko ‘rinmoq ‘ manasini bildiradigan avvalgi yordamchi fe ‘lga ega. Biz ‘yordamchi fe ‘l ‘ deb aytni, chunki bu erda 보다 odatdagi 동사 보다 ‘ dan farq qiladi. Keyingi qisimingiz faqat 유사 ko ‘rinmoq o ‘rinli qo ‘shishni istaydi.</p>	<p>2-jild, 16-dars <Sayohat></p>

		<ul style="list-style-type: none"> ○ Kimchisi oshiqmi ko ‘rinadi. ○ O ‘g ‘lining sinovda juda ko ‘p diqqat qaratishini ko ‘rib turib qo ‘ydim. ○ U qiz hali uylanmaganmi ko ‘rib turib qo ‘ydi. ○ Qoncha sababli yong ‘in ko ‘pmi ko ‘rib turib qo ‘yadi. ○ O ‘tlarni juda ko ‘p suv bilan suv berdimi ko ‘rib turib qo ‘ydim. ○ Odamlarning ko ‘pligi qandaydir narsa yuzaga keldimi ko ‘rib turib qo ‘yadi. 	
--	--	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

Yonsei universiteti koreys tili darsliklarida 1, 2, 3-jildlarda grammatik izohlar ingliz tilida, 4-jilddan boshlab koreys tilida berilgan. Bu darsliklarda Seul milliy universiteti darsliklariga qaraganda rasmlar va ranglar yo ‘q. Yonsei universiteti koreys tili darsliklarida suhbatlar koreys tilida berilgan va ingliz tiliga tarjima qilingan. 1-jild 7-darsdagi ob-havo haqida suhbat talabaga tushunishni osonlashtirsa-da, batafsil tushuntirish berilmagani uchun boshqa taxmin ifodalari bilan aralashib ketishi mumkin. 2-jild 15-darsida ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ taxmin ifodasi keltirilib, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ ifodasining ‘며칠 전보다 값이 더 오른 것 같아요 ‘ misoli takroran keltirilgan, bu o ‘qituvchiga ushbu ikki taxmin ifodalarining farqlarini tushuntirish imkonini beradi.

Boshqa darsliklarga qaraganda Yonsei universiteti koreys tili darsliklarida bitta taxmin ifodasi bir necha marta tushuntirilgan⁸. Grammatik izohlar qismida taxmin ifodalari orasidagi ma ‘no farqlari, fe ‘llarga birikishi va sifatlovchi shakllari kabi ma ‘lumotlar berilgan. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ uchun inglizcha izoh ‘supposition ‘ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ uchun inglizcha izoh ‘seem like ‘, ‘give the appearance of ‘, ‘look like... ‘, ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ uchun inglizcha izoh ‘it seems... ‘ deb tushuntirilgan, bu ma ‘no farqlari Seul universiteti darsliklariga qaraganda batafsilroq keltirilgan va ko ‘proq birikmalar ko ‘rsatilgan. Masalan, 2-jild 16-darsida ‘-는가 보다/-(으)ㄴ가 보다 ‘ shakli keltirilishidan oldin ‘-나요?/-는가요?/(으)ㄴ가요? ‘ shakli tushuntirilgan. 1-jild 7-darsida keltirilgan ‘-(으)ㄹ 것 같다 ‘ 3-jild 27-darsida ‘-었던 것 같다 ‘ shakli bilan ham ko ‘rsatilgan. Shuningdek, ‘-(으)ㄹ 것이다 ‘ ham taxmin ma ‘nosida keltirilgani uchun ‘-(으)ㄹ 것 같다 ‘ bilan

⁸ ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다’는 6회, ‘-(으)ㄴ가/나 보다’와 ‘-(으)ㄹ 것이다’는 4회에 걸쳐 제시되었다. (이선영, “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:63)

solishtirilmasdan berilishi o ‘quvchilarga bu ikki taxmin ifodalari farqlarini aralashtirib yuborishi mumkin. ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ holatida faqat ‘-(으)ㄴ가 보다 ‘ keltirilgan, ammo ‘-인가 보다 ‘, ‘-나 보다 ‘ va qaysi fe ‘llar bilan birikishi haqida aytilmagan. Shuningdek, grammatik izohlar qismida ‘-인가 보다 ‘ keltirilmagan, lekin keyingi misollarda keltirilgan. Yonsei universiteti koreys tili darsliklarida grammatik izohlar hali o ‘zbek tilida tushuntirilmagan. Ushbu taxmin ifodalarini to ‘g ‘ri tushunish uchun o ‘zbek talabalar yetarlicha ingliz tilini bilishlari zarur bo ‘ladi. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다 ‘ ma ‘nosini tushuntirganda sifatlovchi shakllari ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ ‘ asosida tushuntirilgan. ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다 ‘ grammatik izohi so ‘zlovchining taxmini yoki gumoniga asoslanadi va ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ so ‘zlovchi bevosita tajriba qilmagan narsalarni, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다 ‘ esa biror vaziyatni ko ‘rib, boshqa birining harakati yoki holatini taxmin qilishda ishlatiladi deb tushuntirilgan, va bu uchta taxmin ifodasi farqlari qisqacha keltirilgan. O ‘zbek talabalar ma ‘no farqlarini yaxshi tushunishlari uchun, dars davomida talaba o ‘zbekcha tarjima bilan taqqoslangan qo ‘shimcha misollar keltirishi zarur. Mashqlar qismida talabalarning qiziqishini oshirish uchun suhbatlar yaratish yaxshi usul bo ‘lishi mumkin. Fe ‘llarning asosiy shaklini avval o ‘rganish yaxshi usul, ammo keyingi javoblar darhol ko ‘rsatilgani uchun, o ‘quvchilar taxmin ifodalarini mustaqil o ‘rganmay, javoblarga qarab qolishadi. ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ holatida faqat ‘-아/어/여서 그런가 보다 ‘ shakli keltirilganligi sababli, jummalarni to ‘ldirish mashqlari unchalik xilma-xil emas. Koreys tilini o ‘rganayotgan chet elliklar uchun mashqlar qismi, misollar va izohlar yo ‘qligi sababli tushunish qiyin bo ‘lishi mumkin va darsliklar eski bo ‘lgani uchun jumlar va so ‘zlar hozirgi holatga mos kelmasligi mumkin. Shuningdek, Yonsei Universiteti koreys tili darsliklarida so ‘zlash va tinglash qismi mavjud emas.

Kyung Hee universitetining koreys tili darsliklari boshlang ‘ich I-II, o ‘rta I-II, yuqori I-II 6 ta kitobda taxmin ifodalari jami 13 ta bo ‘lgan. Ular orasida ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다 ‘ eng ko ‘p uchraydigan bo ‘lsa, ‘-(으)ㄴ가/나 보다 ‘ va ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다 ‘ mos ravishda 5 va 7-o ‘rinlarda turadi⁹.

⁹ 경희대학교 한국어 교재의 추측의 의미를 지니는 357개 문장의 총 13가지 추측 표현 비율은 ‘-(으)ㄴ 것 같다’는 31.93%, ‘-겠다’가 19.89%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다’는 19.61%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 것 같다’는 9.08%, ‘-(으)ㄴ가/나 보다’는 7.84%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 듯하다’는 2.80%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 모양이다’는 2.52%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 지 모르다’는 1.686%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 걸(요)’는 1.40%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 듯싶다’는 1.12%, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 까 하다’와 ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄴ 리라-’는 0.56%, ‘-지 싶다’는 0.28%로 적은 비율을 보인다. (이선영, “한국어 교육을 위한 [추 측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:49)

Tartibi	Ifodasi	Grammatik tushuntirish va misol jumalalar	Taqdim etilgan birliklar va mavzular
1	<ul style="list-style-type: none"> • Fe ‘1 (으)ㄹ 것 같다 • Harakat fe ‘li 는 것 같아요 • Harakat fe ‘li (으)ㄴ 것 같아요 • Holat fe ‘li (으)ㄴ 것 같아요 	<ul style="list-style-type: none"> ○ 오후에 비가 올 것 같아요. ○ 빌리 씨가 지금 자는 것 같아요. ○ 빌리 씨가 어제 술을 마신 것 같아요. ○ 빌리 씨가 피곤한 것 같아요. • Bu gap, voqealar yoki holatlar haqida taxmin qilayotganda yoki hozirgi holatga asoslangan qaror haqida ishonch hosil qilmagan paytda ishlatiladi. Harakat fe ‘lini ishlatganingizda, o ‘tgan zamon shakli ‘(으)ㄴ 것 같다 ‘, hozirgi zamon shakli ‘- 는 것 같다 ‘, va kelasi zamon shakli ‘(으)ㄹ 것 같다 ‘ bo ‘ladi. ○ 나오코 씨가 용돈을 다 쓸 것 같아요. ○ 오늘 오후에는 비가 그칠 것 같아요. ○ 퇴근 시간이라서 차가 막히는 것 같아요. ○ 그 영화는 아주 재미있을 것 같아요. ○ 오늘은 날씨가 좀 더운 것 같아요. ○ ‘zbek tiliga tarjima: <ul style="list-style-type: none"> ○ Tushdan keyin yomg ‘ir yog ‘ishi mumkin. ○ Billi hozir uxlayotgan ko ‘rinadi. ○ Billi kecha ichgan ko ‘rinadi. ○ Billi charchagan ko ‘rinadi. ○ Naoko o ‘zining barcha cho ‘ntak pulini sarflab yuborishi mumkin. ○ Bugun tushdan keyin yomg ‘ir to ‘xtashi mumkin. ○ Ishdan chiqish vaqti bo ‘lgani uchun, yo ‘llar tiqilib qolgan ko ‘rinadi. ○ Bu film juda qiziqarli bo ‘lishi mumkin. ○ Bugun havo biroz issiq ko ‘rinadi. 	<p>Boshlang ‘ich sinf II 18-dars</p> <p><Teatr oldida uchrashamiz></p>
2	<ul style="list-style-type: none"> • Harakat fe ‘li 나 보다 • Holat fe ‘li (으)ㄴ 가 보다 	<ul style="list-style-type: none"> ○ 빌리 씨가 일을 열심히 하나 봐요. ○ 매일 퇴근을 늦게 해요. 	<p>O ‘rta I dars 3</p> <p><Ish hayoti></p>

		<p>○비빔밥이 너무 매운가 봐요. 물을 많이 마시는군요.</p> <p>○옛날에는 이 거리가 정말 화려했나 봐요.</p> <p>○그 사람은 아직 미혼인가 봅니다.</p> <p>○난로에 기름이 없나 봐요. 불이 꺼졌어요.</p> <p>• Yetarli asosga ega bo ‘lgan holda taxmin qilishda ishlatiladi. So ‘roq shaklidagi qo ‘shimcha ‘boda ‘ bilan qo ‘llanilib, o ‘tgan zamon shakli ‘-otna boda ‘ bilan neytrallanadi.</p> <p>○아마 여기는 우리 같은 사람들이 오는 데가 아닌가 봐요.</p> <p>○월요일 아침에 아이들도 학교에 가기 싫은가 봐요.</p> <p>O ‘zbek tiliga tarjima: ○Billi ishni juda qattiq ishlayotgan ko ‘rinadi. ○Har kuni kech chiqadi. ○Bibimbap juda achchiq ko ‘rinadi. U ko ‘p suv ichyapti. ○O ‘tmishda bu ko ‘cha juda yorqin bo ‘lgan ko ‘rinadi. ○U odam hali turmush qurmagan ko ‘rinadi. ○Pechkada yoqilg ‘i yo ‘q ko ‘rinadi. O ‘chib qoldi. ○Ehtimol bu joy biz kabi odamlar uchun emas ko ‘rinadi. ○Dushanba ertalabida bolalar ham maktabgaborishni xohlamaydigan ko ‘rinadi.</p>	
<p>3</p>	<p>•Fe ‘1 (으)ㄴ/ 는 모양이다</p>	<p>○지금 여기로 오고 있는 모양입니다. 건강은 많이 회복된 모양이에요.</p> <p>○올 여름에는 좀 한가할 모양입니다.</p> <p>• (Shunday qilib) ‘taxmin qilish ‘ni bildiradi. O ‘zbek tiliga tarjima:</p>	<p>O ‘rta II 7 Dars <Hangul></p>

		<ul style="list-style-type: none"> ○Hozir shu yerga kelayotgan ko ‘rinadi. Salomatligi ancha tiklangan ko ‘rinadi. ○Bu yozda biroz bo ‘sh ko ‘rinadi. ○U yig ‘ilishga ham kela olmaganiga qaraganda, Yongch ‘ol bu kunlarda juda band ko ‘rinadi. ○U har qancha harakat qilsa ham shubhalari hal bo ‘lmaganga o ‘xshab, savollarni davomli so ‘rayverdi. 	
--	--	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

Kyung Hee universiteti koreys tili darsliklarida rasmlar, ranglar va harakatlar xilma-xil va boy. Tahlil qilingan ikki koreys tili darsliklariga nisbatan farqi shundaki, kiritish bosqichida suhbat matnini o ‘qishdan boshlamay, suhbatni eshitishdan boshlanadi. 6-bo ‘limda koreys tili darsliklari boshqa darsliklarga nisbatan tinglash qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan. Kyung Hee universiteti koreys tili darsliklarida grammatik izohlar ham Yonsei universiteti darsliklariga o ‘xshash tarzda batafsil keltirilgan. Boshlang ‘ich I darajasida grammatik izohlar ingliz va yapon tillarida, o ‘rta I darajasidan boshlab esa koreys tilida berilgan. Boshlang ‘ich II darajadan to yuqori I darajagacha¹⁰ uchta taxmin ifodasi keltirilgan.

Kyung Hee universiteti koreys tili darsliklarining grammatik izohlari boshqa muassasalarning koreys tili darsliklaridan biroz farq qiladi. Boshlang ‘ich va o ‘rta darajalarda maqsadli grammatika keltirilgandan keyin faqat misollar keltirilgan va misollardan keyin grammatik izohlar berilgan. Kyung Hee darsliklarida ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다 ‘ grammatikasi boshlang ‘ich II 18-darsida tushuntirilgan, ammo bu taxmin ifodasi boshlang ‘ich II 10-darsidan boshlab keltirilgan. Shuningdek, ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ o ‘rta II 1-darsida misol sifatida keltirilgan, lekin grammatik izohlar o ‘rta II 7-darsda berilgan.

Grammatika izohlarida Kyung Hee universiteti koreys tili darsliklari Seul va Yonsei universiteti darsliklariga qaraganda grammatik izohlar bilan birga diagramma rasmlar ham keltirilgan. Masalan, holat ifodalari bo ‘limida ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다 ‘ ni ‘-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ ‘ sifatlovchi shakllari va fe ‘llarni qo ‘shib, ‘Fe ‘1-(으)ㄴ/는 모양이다 ‘ shaklida keltiradi. Grammatikani fe ‘lning birlashmasi orqali tushuntirish yaxshi usul bo ‘lishi mumkin, ammo misollarda aniq ko ‘rsatilmagani sababli o ‘quvchilar taxmin ifodalari orasidagi ma ‘no farqlarini ajrata olmaydi va aniq tushunishi qiyin bo ‘ladi.

¹⁰ 고급 단계의 5권 7장에는 몇 가지 추측 표현들을 제시하고 있다.

Mashqlar qismida rasmlar va masalalar keltirilgan, ammo javob variantlari yo‘q, bu esa o‘quvchilar uchun mashq niyatini tushunishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, boshlang‘ich II darajadagi mashqlarda rasmlarni ko‘rib suhbatni tinglash va taxmin qilish boshlang‘ich o‘quvchilar uchun mos emas. Boshqa koreys tili darsliklariga nisbatan mashq jumalari soni kam bo‘lgani uchun mashq qilish imkoniyatlari kamroq taqdim etiladi.

Xulosa

Maqolada koreys tilidagi taxmin ifodalovchi grammatik konstruktsiyalarning talabalarga qanday taqdim etilishi va ularning tushunish darajasi tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko‘ra, *-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 것 같다* eng keng tarqalgan va tabiiyroq qo‘llaniladi, *-(으)ㄴ가/나 보다* esa vaziyatni hozirgi paytda idrok qilayotgan holatlarda, *-(으)ㄴ/는/(으)ㄹ 모양이다* esa vaziyatni kuzatgandan keyin qo‘llaniladi. O‘zbekiston universitetlaridagi koreys tili darsliklarida ushbu grammatik konstruktsiyalarni aniqroq tushuntirish talabalar uchun yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. 김동욱, “한국어 추측 표현의 의미 차이에 관한 연구- ‘ㄴ 것 같다’, ‘ㄴ 듯하다’와 ‘ㄴ가 보다’, ‘ㄴ 모양이다’의 의미차이를 중심으로-,” 국어학 35집 (2000: 184-185)
2. 백봉자 “외국어로서의 한국어 문법사전,” 서울: 연세대학교 출판부, 2012:322
- 3.진기호 “어휘 의미를 활용한 유의적 문형 교수 방안, ‘-는 것 같다, -나 보다’, ‘는 모양이다’를 중심으로-,”한국어 교육 (2006):396- 411
4. 이기중, “국어의 짐작과 추측 구문 연구,” 박사학위논문, 한남대학교, (1992:104 - 105
5. 김동욱, “한국어 추측 표현의 의미 차이에 관한 연구- ‘ㄴ 것 같다’, ‘ㄴ 듯하다’와 ‘ㄴ가 보다’, ‘ㄴ 모양이다’의 의미차이를 중심으로-,” 국어학회 (2000): 186
- 6.이선영, “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:57
- 7.이선영, “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:60
- 8.이선영 “한국어 교육을 위한 [추측] 표현 연구,” 석사학위논문, 서울여자대학교, 2006:63